

## Ya'qubga jo'natilgan jamoa



15:30 / 08.03.2019 5460

### 3

Yuqoridagi fikrga kelishib olgach, ular Ya'qubning oldiga kelishdi. Ya'qub Yusufdan xavotir olar edi. Inilari unga hasad qilishlarini va uni yoqtirmasliklarini bilar edi. Ya'qub Yusufni akalari bilan birga yubormas edi. Yusuf akalari bilan birga o'ynar, ammo uzoqqa ketmas edi. Akalari buni bilishar edi, ammo ular yomonlikni qasd qilishgan edi. Ular: "Ey otamiz! Nima uchun sen Yusufni biz bilan birga yubormaysan? Nimadan qo'rqasan?" deyishdi. "U biz uchun aziz va kichik ukamizdir. Biz bir otaning farzandlarimiz. Aka-ukalar doim birga o'ynaydilar. Nega biz birga bormaymiz va birga o'ynamaymiz".

**"Ertaga uni biz bilan yubor, yeb-ichib, o'ynab keladir. Albatta, biz uni muhofaza qiluvchilarmiz",** (Yusuf, 12-oyat) dedilar.

Ya'qub keksa yoshli, oqil, halim inson edi. Ya'qub Yusufning o'zidan uzoqlashishini yoqtirmas edi. U Yusuf haqida ko'p qayg'urar edi. U o'g'illariga: **"Siz undan g'ofil qolsangiz, uni bo'ri yeb ketishidan qo'rqaman",** (Yusuf, 14-oyat) dedi.

Ular: "Hech qachon! Biz turganimizda bo'ri qanday yeydi? Qanday ham yesin, axir biz kuchli yigitlarmiz-ku?" deyishdi.

Shunday qilib Ya'qub Yusufga ruxsat berdi.